

Bagaj tashish qoidalari va me'yorlariga rioya qilishingizni so'raymiz

2021 17 Dekabr

Yo'lovchilar tomonidan havo kemasi bortiga yashirincha yirik gabaritli yuklarni qo'l bagaji ko'rinishida olib o'tish holatlari ko'payib borayotgani va bu aviaparvozlar xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani tufayli Uzbekistan Airways barcha yo'lovchilarga bagajni tashish qoida va me'yorlariga rioya qilish zarurligini eslatadi.

Agar samolyot bortiga chiqish vaqtida yo'lovchida ro'yxatdan o'tmagan qo'shimcha qo'l va yuk bagaji aniqlansa, yo'lovchi ushbu bagajni tashish uchun ikki barobar haq to'lashi shart.

Ro'yxatdan o'tmagan bunday bagaj avvalambor ro'yxatga olinadi va «Limited release» identifikatsiya yorliqlari bilan havo kemasining yuk bo'limiga ro'yxatdan o'tgan bagaj sifatida joylashtiriladi. Agar bunday bagajni tashish uchun bo'sh joy bo'lmasa yoki uni rasmiylashtirish uchun vaqt yetarli bo'lmasa, Uzbekistan Airways ushbu bagajni yo'lovchi uchayotgan reysda tashuvini rad etishga haqqi bor. Bunday yuk navbatdagi reysda bo'sh joy bo'lsa belgilangan manzilga jo'natiladi. Bunday holatda Uzbekistan Airways bagajning kechikib yetkazib berilishi uchun javobgar emas.

Agar yo'lovchi aniqlangan ortiqcha qo'l yuki yoki bagaj to'lovini to'lashdan bosh tortsa, aviakompaniya ushbu bagaj tashuvini rad etishga haqli.

Shu munosabat bilan barcha yo'lovchilarga aviakompaniyaning bagaj qoidalari bilan oldindan tanishib chiqishlarini, yo'lovchi o'zi bilan qancha yuk olib ketishi mumkinligini va qo'shimcha yuk tashish xizmatini qanday rasmiylashtirishni aniqlashni tavsiya etamiz.

Telegram: t.me/uzbekistanairways